

## ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING HAMKORLIKDA ISHLASHNING (Cooperative learning) O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

*Aekeeva Guljaxon Uzbekbaevna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi Prezident maktabi rus tili fani  
o'qituvchisi*

*Yeshimbetova Dilfuza Jalg'asovna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi Prezident maktabi o'zbek tili fani  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** 4K ko'nikma (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya)lar insonning hayotiy muammolarini hal qilishga imkon beradi. Kollaboratsiya «Hamkorlikda ishlash» ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu o'quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan biri bo'lib, juftlik yoki guruhli ta'limdan foydalangan holda tilni hamkorlikda o'rganishga urg'u beradi. Ona tilini o'qitish uchun «hamkorlikda ishlash» (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining taklif qilingan birinchi tarkibiy elementi – bu o'zaro ijobiy munosabat hisoblanadi.

**Tayanch so'zlar:** XXI asr ko'nikmalari, ilg'or mamlakatlar, Blum taksonomiyasi, tanqidiy fikrlash, kollaboratsiya.

## ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ УЧАЩИХСЯ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ (Cooperative learning) НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

*Аекеева Гулжахан Узбекбаевна*

*преподаватель русского языка Президентской школы города Нукуса  
Республики Каракалпакстан*

*Ешимбетова Дилфуза Жалгасовна*

*преподаватель узбекского языка Президентской школы города Нукуса,  
Республики Каракалпакстан*

**Аннотация:** Навыки 4К (критическое мышление, творчество, сотрудничество и общение) позволяют решать жизненные проблемы ученика. Сотрудничество Совместное обучение – это подход к развитию коммуникативных навыков учащихся, в котором особое внимание уделяется совместному изучению языка с использованием парного или группового обучения. Первым предложенным структурным элементом образовательной технологии «обучение в сотрудничестве» при обучении родному языку является позитивная связь.

**Ключевые слова:** навыки XXI века, развитые страны, таксономия Блума, критическое мышление, сотрудничество.

## FEATURES OF STUDENT COOPERATION (Cooperative learning) IN MOTHER TONGUE LESSONS

*Aekeeva Gulzhakhon Uzbekbaevna*

*Russian language teacher of the Presidential School of the city of Nukus,  
Republic of Karakalpakstan*

*Yeshimbetova Dilfuza Zhalgasovna*

*Uzbek language teacher of the Presidential School in Nukus,  
Republic of Karakalpakstan*

**Annotation:** The 4K skills (critical thinking, creativity, collaboration and communication) enable the student to solve problems in life. Collaborative learning is an approach to developing students' communication skills that emphasizes collaborative language learning using paired or group learning. The first proposed structural element of the educational technology «cooperative learning» when teaching a native language is a positive connection.

**Keywords:** 21st century skills, advanced countries, Bloom's taxonomy, critical thinking, collaboration.

Dunyo o'zgarimoqda, inson o'zgarimoqda, ta'limning vazifalari o'zgarimoqda. Zamonaviy inson o'z hayotini samarali, qiziqarli, qulay tashkil etishga yordam beradigan ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lish. Bolaga erta yoshda singdirilgan ko'nikmalar uning muvaffaqiyatli rivojlani-shining asosidir. Ilk yoshda bola maksimal miqdordagi ma'lumotlarni o'zlash-tiradi. O'qitish oson va samarali o'tadi.

XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda «4K»ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti [1]. Tadqiqotchi R.M.Karneyro, D.D.Xekmanlar 4K modeli ko'nikmalarining turli sohalar va fanlarda ularning muhimligini ta'kidlaydigan dalillar soni ortib borishini [2] shuningdek, bu ko'nikmalar, xatti-harakatlar va shaxsiy fazilatlar odamlarga o'z muhitida yaxshi harakat qilishlariga, boshqalar bilan til topishishiga va maqsadlariga erishishiga yordam berishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan [3].

2013-yilda Oksford universiteti olimlari 2020-yilga borib odamlarning 35 foizi ishsiz qolishini, ularning kasblari o'zgarishini hisoblab chiqishdi. Robot ofitsiantlar, kassirlar, sotuvchilar, o'qituvchilar bor. Insonga ijodkorlik qoladi. U muloqot ko'nikmalarini, muloqotning yumshoq ko'nikmalarini, hamkorlik va o'zaro ta'sir ko'nikmalarini o'zlashtirish orqali o'zini namoyon eta oladi.

Z avlod ish joyini 7 marta o'zgartirishi kutilmoqda. Ya'ni, bolalar hozir maktabda yoki oliy o'quv yurtida oladigan ko'nikmalar kerak bo'lmasligi mumkin.

Xo'sh, nimani rivojlantirish kerak?

- Kommunikativ ko'nikmalarini;
- Samarali o'rganish qobiliyatini;
- Emotsional intellectini;
- Ijodkorlikni;
- Tanqidiy fikrlashni;

-Axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishimiz kerak.

Ta'lim tizimining eski paradigmasi eskirmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, pedagoglarning 80 foizi o'qitishning yangi usullariga tayyor emas. Bolaga bilim beraman degan pedagog - bu kechagi kun. Bizning davrimizda bilim olishning modellari, usullari yoki yo'llarini ko'rsatish kerak. Ilm yashiringan eshiklarning kalitini berish.

Aytaylik, sizdan bola so'radi: "Deraza tashqarisida harorat qanday?" Unga bir nechta variantlarni taklif qilishingiz mumkin. Birinchisi - shunchaki aytish. Ikkinchisi - termometrqa qarashni so'rash. Uchinchisi - ob-havo ma'lumotini bilishni taklif qilish. To'rtinchisi - ko'chaga chiqarib yuborish, shunda u o'z his-tuyg'ulariga ko'ra taxmin qiladi. Biz bolani mustaqillikka o'rgatar ekanmiz, uni obyektidan ta'lim subyektiga, faol, fikrlovchi ibtidoaga aylantiramiz.

Ta'limda aniq maqsad qo'yish va o'zlashtirilgan bilimlarni tanqidiy tekshirish uchun Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. J.Vakkerning ta'kidlashicha, o'rganilgan bilimlarni real hayotda qo'llash uchun nazariyalarni o'rganish juda muhim hisoblanadi [4: 361-385]: Ona tilini o'qitish metodikasi lingvistik va tilni o'qitish nuqtai nazaridan «ta'lim» (learning) nazariyalariga asoslangan holda olib boriladi. Ushbu nazariyalarni chuqur o'rganish nazariya tamoyillari ona tilni o'qitishni ta'minlashdagi strategiya va texnikalarni tanlashda qo'llanma sifatida ishlatiladi. Ushbu nazariya shaxsga yo'naltirilgan metodlarga asos bo'lib xizmat qiladi va uning eng muhim xususiyati shundaki, konstruktivizm nazariyasi asosida ona tili o'qitilganda ta'lim jarayonida o'qituvchining roli hamma savollarga javob beruvchi bilim manbai emas, balki yo'l ko'rsatuvchilik bilan chegaralanadi [5: 280].

4K tushunchasi – ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muloqot – har qanday sohada muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradigan to'rtta ko'nikma 1950-yillarda AQShda paydo bo'lgan. U qurolli kuchlar uchun kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanadigan mutaxassislar tomonidan ixtiro qilingan. Ular yuqori natijalarga erishish uchun o'quvchilar uchun mexanizmlarni mukammal boshqarish, mehnatsevarlik va asosiy ko'nikmalarini rivojlantirish etarli emasligini angladilar.

Hamkasblar va mijozlar bilan muloqot qilish qobiliyati ham bir xil darajada muhimdir. Terminlardan kelib chiqqan holda ushbu konsepsiya 1960-yillarda to'liq shakllangan [6].

4K modeli – bu, har qanday faoliyatda foydali bo'ladigan insonning shaxsiy fazilatlaridir. Xususan, 4K nazariyasi birinchi marta 1950-yillarda AQShda ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir inson maktabda, ishda va hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun bunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Agar, ushbu ko'nikmalar har bir maktab bitiruvchisida bo'lmasa muvaffaqiyatli bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu masalada 4K ko'nikma (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya)lar insonning hayotiy muammolarini hal qilishga imkon beradi [7]. «4K modelida tanqidiy fikrlash shakli sifatida ratsional fikrlash tartib keltiradi va irratsional fikrlash betartiblikka uyg'unlik» ekanligi G.V.Sorina tomonidan ham o'rganilgan [8: 253].

4K modelidagi Kollaboratsiya «Hamkorlikda ishlash» ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu, o'quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan biri bo'lib, juftlik yoki guruhli ta'limdan foydalangan holda tilni hamkorlikda o'rganishga urg'u beradi. «Hamkorlikda ishlash» ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) – ilk marotaba pedagogika sohasiga J.Lankaster va A.Bell tomonidan XVIII asrda kiritilgan bo'lib, ular Angliyada mazkur metod asosida dars o'tiladigan maktab ochishadi [9: 643].

Keyinchalik esa «hamkorlikda ishlash» ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) boshqa olimlar tomonidan kengroq o'rganildi. Jumladan, J.Devi ta'lim dinamik jarayon bo'lib, nafaqat fanga doir bilimlar berilibgina qolmasdan, o'zaro interaksiya davomida olingan fikr-mulohazalar asosida o'quvchilarning muloqot malakasini rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi [10: 55]. Mazkur yondashuv tarafdorlari R.Olsen va S.Kagan «Hamkorlikda ishlash ta'lim texnologiyasi» (Cooperative learning) – bu guruhli o'quv faoliyati bo'lib, guruhlardagi o'quvchilar o'rtasida ma'lumot almashinuvi bilan olib boriladi», - deb ta'rif bergan bo'lsa [11: 8], R.Slavin esa, «Tilni hamkorlikda o'rganish – bu, o'quvchilar kichik guruhda

muammolarni ijtimoiy hal qilish uchun birgalikda ishlashidir», - deb ta'kidlaydi [12: 194].

«Hamkorlikda ishlash» ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi asoschisi L.Vygotiskiyning proksimal rivojlanish maydonidagi ichki tor doiradan chiqib, boshqa bilimlroq bilan o'rtadagi doira topshiriqlarini bajarish va buning natijasida tashqaridagi ijtimoiylashuv jarayonisiz o'zi yolg'iz bajara olmaydigan maydondagi bilimni egallashiga turtki bo'ladi. G.I.Shukina «Ta'limda faollikni ta'minlashni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni tashkil etgan holda amalga oshirish mumkin», - deb hisoblaydi [13: 36-37].

M.Garsiyaning fikriga ko'ra, «Ushbu yondashuvning ijobiy taraflaridan biri – talabalar birgalikda ishlayotganda, ular o'z sheriklaridan o'rganish bilan birga, do'stlari bilan birgalikda ishlashdan zavqlanadi» [14: 1-19]. «Hamkorlikda ishlash» (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, talabalar pedagogik jihatdan tuzilgan mashg'ulotlarni bajarish davomida fanni o'rganishning muhim sharti hisoblangan ijtimoiylashuv jarayoni sodir bo'ladi. Ushbu yondashuv ustida ilmiy ishlarini olib borgan olimlar S.Kagan [15: 450] va S.Viderxoldlar [16: 284] ta'lim oluvchilarning kommunikativ aloqada til bilimlarini yaxshilash bilan birga, birgalikda til o'rganish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi hamda, tanqidiy fikrlashni nutq faoliyati turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv bilan uzviy bog'lab o'rgatish kerak, - deb ta'kidlaydi.

Ona tilini o'qitish uchun «hamkorlikda ishlash» (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining taklif qilingan birinchi tarkibiy elementi – bu, «o'zaro ijobiy munosabatdir». Agar, o'quvchilar berilgan vazifani bajarishda guruhdagi har bir a'zoning muvaffaqiyati muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunsalar, guruh a'zolari orasida ijobiy o'zaro munosabat shakllanadi. Natijada, guruh a'zolari vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun bir-birini qo'llab-quvvatlashi kerakligini tushunib etadilar.

Emotsional intellekt -bu o'zining va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini, niyatlarini, motivatsiyasini, istaklarini aniqlash va ularni boshqarish qobiliyati.

Hozirning o'zidayoq ko'plab kompaniyalar xodimlardan yuqori intellekt koeffitsiyentini emas, balki hissiy intellektga ega bo'lishni talab qilmoqda. Uning rivojlanishi bir martalik harakat emas, balki maktabgacha bo'lgan davrda boshlanishi kerak bo'lgan uzoq davom etadigan jarayondir. Ehtimol, siz bola virtual dunyodan haqiqiy dunyoga chiqib, o'yin tugaganini, bu erda esa muloqot qilish, e'tibor va sabr-toqat ko'rsatish kerak bo'lgan jonli odamlar borligini tushunmagan holatlar haqida eshitgandirsiz. Bolani his-tuyg'ularni anglash va tushunishga o'rgating. Bu energiyani motivatsiyaga yo'naltirishga va o'z intilishlarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Bolalar bilan muloqot qilishda yordam beradigan iboralar va savollar. Xato qilish ham oldinga tashlangan qadamdir! Buni qanday boshqacha qilish mumkin? Sen nima deb o'ylaysan? Asoslab ber. Qani, birga ketdik! O'zingiz sinab ko'ring. Barakalla!

Shunday qilib, bolani yoshligidan rivojlantiring. Ota-onalar yoki tarbiyachilarning qo'polligi va e'tiborsizligi uni "yopib qo'yishi" mumkin, maktabda esa u savol berishdan qo'rqadi.

Bolani qo'llab-quvvatlang, ochiq bo'ling, qiziqishingizni ko'rsating. Ba'zi hayotiy muammolarni hal qilishda muammoni qanday qilib qismlarga bo'lishni ko'rsating, maslahat bering, lekin barchasini o'zi hal qilishiga imkon bering. Bolani, albatta, o'zini band qilishga o'rgating. Yolg'izlik azob-uqubat emas, balki o'ylash va mulohaza yuritish ekanligini ko'rsating. Unga bo'sh vaqt bering, masalan, haftada bir soat, o'zi o'ynashini so'rang. Mustaqillikni o'rgansin va bundan aziyat chekmasin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://kun.uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida>
2. Клак Б.И.. Развитие 4К-умений учащихся с использованием сервисов GOOGLE на уроках истории и обществоведения – [https://akademy.by/files/documents/MD-MSOP/History/2022-Razvitie\\_4K.pdf](https://akademy.by/files/documents/MD-MSOP/History/2022-Razvitie_4K.pdf)
3. Сорина Г.В. Принятие решений как интеллектуальная деятельность. Монография. – Москва: Гардарики, 2005.

4. Щукина Г.И. Исследование активизации учебно-познавательной деятельности // Советская педагогика. – Москва, 1983. – № 3.
5. [http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963\(98\)00019-9](http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963(98)00019-9) – Wacker J.G. A Definition of Theory: Research Guidelines for Different Theory-Building Research Methods in Operations Management // Journal of Operations Management. – 1998. – № 16.
6. Kao Y. (2014). Vygotsky's theory of instruction and assessment: the implications on foreign language education. Dissertation. USA.
7. Yassin A.A., Razak N.A., Maasum N.R. (2018). Cooperative Learning: General and Theoretical Background // Advances in Social Sciences Research Journal. – 2018. – № 5 (8).
8. Slavin R. (1995). Cooperative Learning: Theory, Research and Practice. 2nd ed. New York: Prentice Hall.
9. Комил Джалилов «Навыки 4К в образовании: Что это, как их внедрять и получается ли», 30 декабря 2023 г., <https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/30/4k/>
10. О.О. Путило, А.О. Путило «Инновационные технологии в области литературного образования», научное издательство ВГСПУ «Перемена», 2021 г.